



## O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA YANGI INNOVATSION YO'NALISHLARNI TASHKIL ETISHDA XORIJ TAJRIBASI

**Bolqiboyeva Ug'iloy Bolqiboy qizi**

*TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini  
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"*

*ilmiy-tadqiqot markazi*

*ORCID: 009-005-8200-0446*

*[ubolkiboyeva@bk.ru](mailto:ubolkiboyeva@bk.ru)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakatimizda turizm sohasida yangi yo'nalishlarni tashkil etishda xorij tajribasi o'rganilgan va turizm sohasini rivojlantirish borasida taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm turlari, innovatsiya, turizm infratuzilmasi, bandlik, ishsizlik, ekoturizm, madaniy turizm, klaster tizimi, iqtisodiyot, demografik omillar.

## ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ОРГАНИЗАЦИИ НОВЫХ ИННОВАЦИОННЫХ НАПРАВЛЕНИЙ В ОБЛАСТИ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

**Болкибоева Угилой Болкибой кызи**

*Научно исследовательского центра*

*«Научные основы и проблемы развития экономики*

*Узбекистана» при ТДИУ*

**Аннотация.** В данной статье изучен зарубежный опыт становления новых направлений в сфере туризма в нашей стране, а также представлены предложения и рекомендации по развитию сферы туризма.

**Ключевые слова:** виды туризма, туристская инфраструктура, занятость, безработица, экотуризм, культурный туризм, кластерная система, экономика, демографические факторы

## FOREIGN EXPERIENCE IN ORGANIZING NEW INNOVATION DIRECTIONS IN THE FIELD OF TOURISM IN UZBEKISTAN

**Bolkiboyeva Ugiloy Bolkiboy kizi**

*Scientific research center*

*"Scientific bases and problems of the development  
of the economy of Uzbekistan" under TSEU*

**Annotation.** In this article, the foreign experience in the establishment of new directions in the field of tourism in our country is studied, and proposals and recommendations for the development of the field of tourism are presented.

**Key words:** tourism types, tourism infrastructure, employment, unemployment, ecotourism, cultural tourism, cluster system, economy, demographic factors.

### Kirish.

Bugungi globallashuv sharoitda turizm sohasi iqtisodiyotning eng ustuvor tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Turizm sohasiga hukumatimiz, davlatimiz tamonidan qaratilayotgan e'tibor va islohatlar yuqoridagi fikrimizni tastiqlaydi deb ayta olamiz. Ya'ni, sohani rivojlantirish doirasida bir qator me'yoriy va huquqiy hujatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar okimini yanada oshirishga karatilgan ko'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-102-son Farmoni, 2024-yil 12-yanvardagi "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-9-son Farmoni qabul qilingan<sup>6</sup>. Bundan tashqari, "O'zbekiston-2030" strategiyasida turizm sohasini rivojlantirishga va yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan maqsadlar keltirilgan. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash bobi, 35-maqsadida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish belgilangan bo'lib, bu asosida:

- to'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish. 2026-yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish;

- turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturini qabul qilish;

- Samarqandni "Turizm darvozasi"ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm xizmatlari hajmini kamida 10 baravarga oshirish. Turizm sohasida 40 ming kishi bandligini ta'minlash. 2022-yilda "Abadiy shahar" tarixiy majmuasini o'z ichiga olgan Samarqand turizm markazini va zaruriy infratuzilmani tashkil etish;

- Xorazm viloyatida turizm yangi ish o'rinlarini yaratishda asosiy drayver soha bo'lishi uchun alohida dastur qabul qilish;

- Toshkent viloyatida turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqish<sup>7</sup> kabi vazifalar belgilangan.

O'zbekiston-2030" strategiyasida turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha maqsad va vazifalar belgilangan. Jumladan, 2030-yilga qadar xorijiy sayyohlar sonini 15 million nafarga, ichki sayyohlar sonini 25 million nafarga, ziyorat turizmi bo'yicha keladigan sayyohlar sonini 3 million nafarga yetkazish ko'zda tutilgan. Shuningdek, xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga respublikada mehmonlar uchun mo'ljallangan o'rinlar sonini kamida 2 barobar oshirish, turizm mahallalari sonini 175 taga, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga, tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga yetkazish belgilangan (Farmon, 2023).

### Adabiyotlar sharhi.

Malumki, turizm sohasi juda keng iqtisodiy tarmoq sifatida ko'plab olimlar, izlanuvchilar tamonidan izlanishlar olib borilib o'rganib kelinmoqda. Jumladan, xorij mamlakatlari olimlaridan, Bolgariya Janubiy-G'arbida joylashgan "Neofit Rilski" universitet tadqiqotchilari Kiryakova-Dineva, Vasenska (2021) olib borgan tadqiqotida tadqiqoti yangi turizm turlarini yaratishda yangi turizmga oid so'zlarni neologizatsiya qilishni tadqiqotning boshlang'ich nuqtasi sifatida e'tibor qaratishgan. Ya'ni, tadqiqotchi yangi turizm turlarini yaratishni hamda, yangi turizm atamalarining hosil bo'lish jarayonini parallel tarzda olib borgan. Bundan tashqari, Knut, Jens, Axel (2023) "Vino turizmiga kirish" nomli maqolasida, Vino turizmini rivojlantirish

<sup>6</sup> <https://lex.uz/> O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi

<sup>7</sup> [https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu\\_id=144](https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144)

maqsadida vino ishlab chiqarishga potentsiali mavjud bo'lgan, iqlimi, landshafti to'g'ri keladigan hududlarda vinoning turlarini yaratishga qaratilgan izlanish olib borilgan.

Buhalis (2020), "Turizm sohasidagi texnologiyalar: axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan e-Turizmga va atrof-muhitni o'rganishga qaratilgan smart turizm" nomli tizimli tadqiqotida, e-Turizm konsepsiyasini hamda turizm sanoati uchun zamonaviy texnologiyalarning transformatsion xususiyati o'rganilgan.

O'zbekistonlik olimlardan, Abdurahmanovning (2023) "Turistik klasterlarning texnologik platformasini ishlab chiqish" nomli maqolasida turizm sohasida klaster usullaridan keng foydalanish va uning texnologik platformasini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan hamda, klasterlarning texnologik platformasining imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha bir qancha takliflar keltirilgan. Shuningdek, Eshtayev (2023) tamonidan yozilgan "Qoraqolpog'iston Respublikasida turizm sohasining yangi yo'nalishlarini tashkil etish imkoniyatlari" maqolasida, Qoraqolpog'iston turistik salohiyatini oshirish maqsadida "Yangi O'zbekistonni birgalikda quramiz!" sadosi ostida "Sahro sadosi" yoshlar festivali o'tkazilganligi va bu festival orqali mahalliy hamda xorijoy sayyohlar sonini oshirish, qolaversa foydalanilmayotgan turizm resurslaridan oqilona foydalangan holda hududda yangi turizm turlarini yaratish, turizm klasterini tashkil etish masalalari muhokama qilingan. Axmedov (2023) olib borgan izlanishlarining birida, O'zbekistonda tog' turizmini rivojlantirishdagi muammolar o'rganilgan. Tadqiqotchi xulosasiga ko'ra, Respublikamizda tog' turizmini rivojlantirish uchun bizda turizm salohiyati katta ammo turistik bazalar va mehmonxonalarining kamligi hamda transport infrastrukturasi yahshi emasligi asosiy muammolarimiz ekanligi ko'rastirilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Maqolada ilmiy abstraksiya, empirik, tavsifiy statistika, guruhlash, taqqoslash va dinamik tahlilning tadqiqot usullaridan foydalaniladi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Yangi O'zbekistonni barpo etishda turizm sohasining rolini yanada oshirish hamda tarmoqda yangi innovatsion yo'nalishlarni yaratish orqali aholi bandligini taminlashga qaratilgan vazifalar amalga oshirilmoqda. Yuqorida keltirib o'tganimizdek, Qoraqolpog'iston Respublikasidagi Xo'jayli hamda Ellikqal'a tumanlarida turizm salohiyatini oshirish maqsadida mahalliy aholini turizm sohasiga jalb qilish hamda ish bilan bandlik darajasini oshirishga qaratilgan seminarlar tashkil etilmoqda. Bundan tashqari turizm imkoniyatlariga boy bo'lgan Respublikamizning boshqa hududlarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Jumladan, Samarqand viloyati Qo'shrabot tumanida ham turizmga bo'lgan potensial juda yuqori hisoblanib, tumanda turizm xomashyosi sifatida foydalanilmayotgan resurslar ham mavjuddir. Pangat qishlog'i yuqoridagi gapimizni tasdiqlashda yaqqol misol bo'la oladi. Pangat qishlog'i rekratsion jozibaga ega bo'lgan tabiiy turizm resurslariga boy maskandir. Qishloq aholisi orasida "U dunyoda Jannat bu dunyoda Pangat" deb ataladigan ibora hali hanuz og'izdan og'izga o'tib gapirilib kelinar ekan. Bundan tashqari, hududda xorij tajribasidan foydalangan holda "Qishloq turizmi"ni rivojlantirish orqali sayyohlarni jalb qilish hamda barqaror tajribaga ega bo'la olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizda barqaror turizmni rivojlantirishga qaratilgan bir qancha islohatlar olib borilmoqda. Barqaror turizm konsepsiyasining ilmiy-nazariy tuzilmasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan barqaror rivojlanishning 17 ta maqsadlarini jamlagan metodologik yondashuvga tayanadi. Barqaror turizm konsepsiyasiasosida faoliyat yuritishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilarni nazarda tutadi (Amonboyev, Xalilov, 2021):

-turistik infratuzilma obyektlarining qabul qilish va joylashtirish quvvatlarini baholab borish;

-turistik kompaniyalar boshqaruv jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy omillar ta'sirini hisobga olish;

- mehmondo'stlik industriyasi xodimlarining barqaror turizm tamoyillariga oid kompetensiyasini qaror toptirish;
- makro, mezzo va mikroiqtisodiy darajada turizmni rejalashtirishda resurslar sarfi va iste'molining optimal me'yorini belgilash;
- turizmga oid davlatlararo va mintaqalararo texnologiyalar transferini yo'lga qo'yish;
- xizmat ko'rsatish obyektlari turistlar qamrovida demografik parametrlarning taklif etilayotgan turistik mahsulot iste'mol xossalari bilan o'zaro muvofiqligini taminlash;
- turistik mahsulotlar ishlab chiqish jarayonida atrof-muhitmuhofazasi va resurslarni tejab ishlatishga, turistlarni qabo'l qiluvchi tomon mahalliy aholisining farovonligi ortishiga hissa qo'shishni ko'zlash;
- mintaqalararo turizmning rivojlanishi o'rtasidagi tafovutlarga barham berish;
- turizmni strategik rivojlantirish dasturini ro'yobga chiqarishda davlat va xususiy sector sherikchiligi imkoniyatlaridan foydalanish.

Rasmiy statistik ma'lumotlar turizm sohasining yaqin besh yillar ichida sayyohlar oshib borishi bilan mamlakat iqtisodiyotida yetakchi o'rinlarni egallab kelayotganligini isbotlamoqda. 2023-yil hisobi bo'yicha taxminan 7 millionta sayyohlar yurtimizga turli maqsadlarda tashrif buyurishdi. Bu ko'rsatkichni 2024-yil uchun pragnoz natijalariga ko'ra, sayyohlar sonini 10 milliontaga oshirish belgilandi.

1-grafikdan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizga tashrif buyuradigan sayyohlarning asosiy qismini yosh jihatidan tahlil qilganimizda 31-55 oralig'idagi sayohatchilar tashkil etgan. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, Respublikamizda tarixiy xususiyatga ega bo'lgan hamda passiv turizmni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lgan mintaqalarda yangi turizm turlarini tashkil qilish mumkin. Misol uchun, nafaqat Samarqand, Buxoro, Xivada ziyorat turizmni rivojlantirishga qaratilgan vazifalarni balki, boshqa viloyatlarda xususan, Andijon, Namangan, Navoiy viloyatlarida ham madaniy meros obyektlari salmoqligina va biz bu hududlarda avvalo turizm infratuzilmasini shakillantirishimiz hamda turistik marshurti tashkil qilishimiz muhimdir. Jumladan, Navoiy viloyati ham qadimgi tarixiy rivoyatlarni jonlantiradigan "Nur-Ota" chashmasi hozirgi kunda turistlar uchun passiv turizm maskaniga aylangan. Shu o'rinda aytish joizki, chashma haqidagi tarixiy afsonaviy rivoyatlar ijtimoiy tarmoqlarda to'la holatda ma'lumot bazasi sifatida joylanmagan. Bundan tashqari viloyatda yana YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan madaniy meros obidalar ham mavjuddir.

## 1-jadval

### 2023-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar soni yoshlar kesimida

Yoshlar kesimi	2023 yil
0 dan 18 yoshgacha	1064,57
19 dan 30 yoshgacha	1000,22
31 dan 55 yoshgacha	3192,76
55 yoshdan oshgan	1368,74
Jami	6626,30

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat Qo'mitasi ma'lumotlari.


UNWTO ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil ko'plab sayohatchilar "Barqaror amaliyotlar va moslashuvchanlik"ni hisobga olishadi. Chunki, ular nafaqat barqaror tarzda biznes yuritadigan sayyohlik kompaniyalari bilan shartnoma tuzishdan manfaatdor balki sayohati davomidagi tashrif buyuradigan joylarining infrastrukturasi, ekalogik-toza iqlimi, xizmatlar sifati ham ahamiyatli hisoblanadi. Buni Arivalning "2024-yilgi AQSh sayohati" asari tasdiqlaydi, unda tabiatga sayohatlar va boshqa "ekoturlar" ayniqsa amerikalik sayohatchilar tomonidan yuqori talabga ega ekanligini aniqlangan<sup>8</sup>.

<sup>8</sup> <https://www.rezgo.com/blog/innovative-tourism-business-ideas/>

2024 yilda Fransiya sayohatchilarning oshib borayotgan ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga olgan holda yangi innovatsion turizm turlarini yaratmoqda. Jumladan, “Barqaror va Ekoturizm” kabi yo‘nalishda turizm ekalogik mehmonxonalarda tabiat qo‘ynida turlar tashkil etish bundan tashqari, “Eco-friendly” zonalarda velosipedda sayohatlar tashkil etish orqali Fransiya sayyohlarga o‘z turizm salohiyatini namoyish etmoqda. Ekoturizm nafaqat Fransiyada balki, butun dunyo bo‘yicha rivojlanishi kutilmoqda ya‘ni 2024 yil oxiriga kelib, global ekoturizm bozori hajmi 249,16 milliard dollargacha o‘shishi prognoz qilinmoqda, bu 2023 yildagi 219,53 milliard dollardan 13,5 foizga oshadi. 2028 yilga borib ekoturizmning global bozori hajmi 428,97 milliard dollargacha oshishi pragnoz qilingan<sup>9</sup>. Bundan tashqari, Fransiyada, “Pazzandachilik va fermadan dasturxongacha bo‘lgan tajribalar” kabi turizm turlari tashkil etilgan. Bunda turistlar bemalol organic dehqonchilik amaliyotlarini o‘rganishlari yoki hatto mahalliy ingrediylentlardan foydalangan holda pazandachilik darslarida bemalol qatnasha olishlari mumkin.<sup>10</sup>

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, turizm sohasida klasterlarni tashkil qilish mamlakat iqtisodiyotiga yuqori daromad manbaini olib keladi. Garvard biznes maktabi ma‘lumotlariga ko‘ra, AQSH iqtisodiyotida 32 foizdan ortiq bandlikni klasterlar taminlab beradi (byujet sektoridan tashqari) (Eshtaev, 2023). Klaster tizimi to‘g‘risida bir qator olimlar o‘zlarining fikrlarini bildirgan. O‘zbekistonlik olimlardan Rahmatov, Zaripov (2018) tamonidan klasterga quyidagicha tarif berilgan: “Umuman olganda klasterlash bu katta geografik hududda konsentratsiyalashgan va ma‘lum bir aniq vazifani yechishga qaratilgan, yagona boshqaruvdagi zanjirga bog‘langan korxonalar guruhi bo‘lib, ular bir-biri bilan uzviy aloqadagi, jamoaviy raqobatlashuvni mustahkamlash maqsadida ishchi kuchlarini o‘zaro birlashtiruvchi integratsion, innovatsion va albatta, iqtisodiy o‘shishni taminlaydigan, ilmga asoslangan jarayon hisoblanadi”.

Mazkur jadvalda Turizm klasterining mamlakat iqtisodiyotiga ta‘sirini ko‘riishimiz mumkin (1-rasm).



**1-rasm. Turizm klasterining mamlakat iqtisodiyotiga ta‘sirini**

*Manba: tadqiqotchi tamonidan ishlab chiqildi.*

<sup>9</sup> France.travel.uz

<sup>10</sup> France.travel.uz



Joriy yilda butun dunyoda turizm turlari bo'yicha mashhurlikka erishib kelayotgan hamda bizga dunyoni qanday ko'rishimizni anglatib turadigan sayohat tendensiyalari quyidagicha guruhlandi:

1. "Astro turizm". Albatta, astronomiya sivilizatsiya paydo bo'lganidan beri mavjud bo'lgan tadqiqot sohasi bo'lib, yulduzlarga qarash uzoq vaqtdan beri qalbni tinchlantiradigan hayrat manbai bo'lib kelgan. Bugungi kunda jamiyat tobora kengayib borayotgan virtual olamga qanchalik chuqurroq kirib borsa, biz haqiqiy koinotdagi dunyoqarashimizni kengaytirish zaruratini shunchalik ko'p his qilamiz. Astro turizm yoki yulduzli cho'milish - bu astronomik hodisalarni ko'rish maqsadida sayohat qilish - har qanday ifloslanish, olomon va tirbandlikdan mahrum bo'lgan yerlarga g'oyib bo'lish, bu yerda biz faqat yuqoridagi osmonga e'tibor qaratishimiz mumkin bo'lgan turizm turi hisoblanadi.

2. "Poyezd stansiyalarining yangi ovqatlanish maskanlariga aylanishi" - bu trend o'z nomi bilan albatta ma'lumki, avvallari poyezd stansiyalarida yo'lovchilar kamroq o'z reyklarini kutub turish uchun imkon qadar tahminan 5 daqiqa qolganida yetib kelishar edilar, aksariyat bugungi dunyo sayohatchilari hatto poyezd stansiyalaridagi vaqtlarini ham barqaror tarzda tajribaga almashishni yoqtirishmoqda va albatta bugungi kunda poyezd stansiyalarida ham ovqatlanish, savdo, turli xizmat ko'rsatish shaxobchalari xizmatlar to'plamlari o'z o'rnini egallamoqda.

3. "AI (suhbatdosh chatbot) siz bilan birga". Haqiqatda bunday sayohat albatta hamma uchun qiziqarli bo'lishi shubhasiz. Bizga ma'lumki, 2023-yilda sun'iy intellekt sayohatchilarga sayohatlarni rejalashtirishiga yordamchi bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda esa har bir sayohatchiga hamrohlik qilishi kutilmoqda<sup>11</sup>.

4. "Yovvoyi ziyofat". Yovvoyi ziyofat tabiiy muhitda giper-mahalliy va yem-xashakdan tayyorlangan ingredientlarni birlashtirgan holda chiroyli tarzda tayyorlangan oshpazlik tajribalari tendentsiyasini tasvirlaydi. Misol uchun, Shvetsiyada siz sayohatchilar o'z qo'llari bilan ochiq restoranlarda ovqatlarni o'z qo'llaringiz bilan tayyorlab dasturxonga torta olasiz. Ajablanarlisi shundaki, u yerda ovqatga tayyor mahsulot holatiga kelmagan yovvoyi o'tlar, barglari qalin sabzavotlarni o'zingiz kerakli miqdorda olib tozalash jarayonini ham amalga oshirasiz. Sayohatchilar pishiradigan barcha ovqatlar bosh oshpaz ko'rsatmasi asosida tayyorlanadi.

### Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda turizm sohasida yangi innovatsiyalarni qo'llash hamda yangi turizm turlarini O'zbekistonda rivojlantirish orqali biz yurtimizga turistlar oqimining prognoz qilgan raqamlaridan ham ancha yuqori natijaga erisha olamiz. Shu o'rinda O'zbekistonda, ayniqsa qishloq hududlarda yangi turizm yo'nalishlarini tashkil etishda quyidagi takliflar keltirilgan: Qishloq turizmnini rivojlantirish maqsadida "Madaniy dam olish uylari" tashkil qilinsa, sayohatchilar qishloq hamda mahalliy jamoalarda mahalliy oilalar bilan yashaydilar. Bu orqali aholining kundalik hayot tarzi va an'analarida qatnasha olish imkoniyatiga hamda internet dunyosidan uzoqlashishga erishadilar. Bundan tashqari, "Heritage technology tourism" turizm turi ya'ni, bu bir paytning o'zida turist qadimiy madaniy meros obyektlar haqida hamda zamonaviy texnologiyalar va arxetektura na'munalari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Misol uchun, Samarqand viloyatida joylashgan Registon maydonining tarixi va zamonaviy bugungi hayoti parallel tarzda tashkil qilingan bo'ladi.

### Adabiyotlar/Jumepamyra/ Reference:

Abdurahmanovanning G.Q. (2023) "Turistik klasterlarning texnologik platformasini ishlab chiqish", *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, dekabr. Maxsus son.*

AMONBOYEV M., XALILOV S. (2021) "BARQAROR TURIZM RIVOJLANISHI"- O'quv qo'llanma. - T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», - 96 b.

<sup>11</sup> <https://www.cntraveller.com/article/travel-trends-2024>

Axmedov (2023) "ЎЗБЕКИСТОНДА ТОҒ ТУРИЗМИНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ" YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT 2023-yil, dekabr. Maxsus son

Buhalis, D. (2020), "Technology in tourism-from information communication technologies to eTourism and smart tourism towards ambient intelligence tourism: a perspective article", *Tourism Review* 75(1)

Eshtaev A.A. (2023) *O'zbekistonning turizm salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari. Monografiya, Samarqand, -288 bet.*

Eshtayev A.A. (2023) "Qoraqolpog'iston Respublikasida turizm sohasining yangi yo'nalishlarini tashkil etish imkoniyatlari", *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, dekabr. Maxsus son.*

Farmon (2023) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida PF-158-son Farmoni*

Knut Scherhag, Jens Rüdiger, Axel Dreyer (2023) "Introduction to wine tourism" article., *December.*

Rahmatov M.A., Zaripov B.Z. (2018), *Klaster-integratsiya, innovatsiya va iqtisodiy o'sish// Zamin nashr. T., 17-bet.*

Teodora Kiryakova-Dineva, Ivanka Vasenska and Blagoevesta Koyundzhiska-Davidkova (2021) *South-West University "Neofit Rilski", Blagoevgrad, Bulgaria., "New Forms of Tourism: A Matter of Neologism Formation or Reality in the Tourism Practice" "A Virtual Conference hosted by Politechnic Institute of Porto, Portugal., 20-21 May.*